“Made in Uzbekistan”da innovatsion ishlanmalar namoyish etilmoqda

Respublikamizda o‘tkazilayotgan “Made in Uzbekistan” I Xalqaro eksport ko‘rgazma-yarmarkasida korxona va tashkilotlar o‘zlarining farmatsevtika, oziq-ovqat, charm-poyabzal, qurilish, xalq iste’moli mollari, avtomobilsozlik, kimyo sanoati, elektrotexnika, agrosanoat yutuqlari, yangi turdagi mahsulotlari, ta’lim va boshqa turdagi xizmatlari bilan ishtirok etishmoqda. Xususan, ushbu ko`rgazma-yarmarkada O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi barcha turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun makro, mikro, mezo elementlarga va bioorganik moddalarga boyitilgan “Gektar” kompleksi, “ElSMiK” bargdan oziqlantiruvchi vositasi, “Dalron super” defolianti, Mikrobiologiya instituti olimlarining turli xil biopreparatlari bilan qatnashmoqda.

I

Shuningdek, Umumiy va noorganik kimyo instituti laboratoriya mudiri Farhod Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan rezervuarlar uchun panton qurilmasi namoyish etilmoqda.

Ushbu suzuvchi panton qurilmasi neft mahsulotlar tarkibidagi yengil uglevodorodlarni havoga bug‘lanishini kamaytiradi va sig‘imlar ichida to‘satdan chiqadigan yong‘inlarni bartaraf yetadi. Ko‘mir briketi uchun bog‘lovchi-briketlarning qattiqligini, yonuvchanligini oshiradi, shuningdek, neft va gaz tarmog‘idagi issiqlik turbalarining ichki yuzasidagi tuzli qatlamni tozalash uchun erituvchi vosita sifatida ham foydalaniladi.